

**“Open bank” aksiyadorlik jamiyati
Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining
2025-yil 20-oktabrdagi
5-sonli yig‘ilish bayonnomasiga
9 -ilova**

openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-93</u>
	Sana: "№ <u>21</u> " <u>oktabr</u> <u>2025</u> yil

**«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATINING
DIVIDEND SIYOSATI**

Toshkent – 2025-yil.

Mazkur “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining dividend siyosati” (keyingi o‘rinlarda Siyosat deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlari va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlariga hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Siyosat “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda Bank deb yuritiladi) dividendlarni shakllantirish, taqsimlash va to‘lash tartibotini belgilab beradi.

2. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan aksiyalar bo‘yicha dividendlar miqdorini belgilash va to‘lash tartibi yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishda ushbu Siyosatdan foydalaniladi.

Mazkur Siyosat asosida dividendlar to‘lash masalalarida amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan noaniqlik holatlari vujudga kelganda aksiyadorlar manfatlari himoya qilingan holda amaldagi qonunchilik hujjatlari meyorlari asosida hal qilinishi lozim.

3. Siyosat uch yil muddatga ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur uch yillik davrda Bank tomonidan olingan sof foyda Bank Kuzatuv kengashining tavsiyasiga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaroriga asosan taqsimlanadi.

4. Bank aksiyadorlarga dividendlar to‘lash bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega hamda e‘lon qilingan dividendlarni to‘lash Bankning majburiyati hisoblanadi va aksiyadorlar oldida e‘lon qilingan dividendlarni (soliq to‘lovlardan tashqari) to‘liq miqdorda to‘lanishi bo‘yicha javobgar hisoblanadi.

2-bob. Siyosatning asosiy maqsadi va tamoyillari

5. Siyosatning asosiy maqsadi Bank va aksiyadorlarning moliyaviy holatini mustahkamlash, kapitallashuv darajasini oshish, Bank aksiyalarning kotirovkasini saqlab turish hisoblanadi.

6. Siyosati quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:


shaffoflik – dividendlar miqdori va uni to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilish shartlari va tartibi, Siyosatni amalga oshirida ishtirok etuvchi tomonlarning mas‘uliyati va majburiyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni aniqlash va oshkor etish;

muddatlilik – dividendlar to‘lovini amalga oshirishda muayyan muddatini belgilash;

asoslanganlik – Bankning mavjud moliyaviy holatini hisobga olgan holda, faqatgina ijobiy moliyaviy natijalarga erishgan taqdirda dividendlar miqdori va ularni to‘lash haqida qaror qabul qilish;

adolat – dividendlar miqdori va uni to‘lash tartibi to‘g‘risida qabul qilinadigan qaror haqida ma‘lumotlarni olishda teng huquqlikni ta‘minlash;

mantiqiylik – Siyosatning tartib - tamoyillarini qat’iy ijrosi;



rivojlanish – Bankning strategik maqsadlari o‘zgarishi natijasida korporativ boshqaruvni yanada yaxshilash maqsadida meyoriy hujjatlarni muntazam ravishda takomillashtirish;

barqarorlik – Bankning dividendlar to‘lovi darajasini barqarorligini ta’minlashga intilishi.

3-bob. Dividendlar miqdorini aniqlash va hisoblash tartibi

7. Aksiyalarning har bir turi bo‘yicha dividendlarni to‘lash, dividendning miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi to‘g‘risidagi qaror Bank Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Dividendlarning miqdori Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko‘p bo‘lishi mumkin emas.

8. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo‘yicha dividendlarni to‘lamaslik to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli. Dividendlarni to‘lash to‘g‘risidagi qarorda dividendlarni to‘lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

9. Bank quyidagi holatlarda dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to‘lashga haqli emas:

Bank ustav kapitalining hammasi uning ta’sis etilishi chog‘ida to‘liq to‘lab bo‘linguniga qadar;

agar dividendlar to‘lanadigan paytda Bankda to‘lovga qobiliyatsizlik belgilari mavjud bo‘lsa yoki Bankda shunday belgilar dividendlarni to‘lash natijasida paydo bo‘lsa;

agar Bank sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va zaxira fondi summasidan kam bo‘lsa;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan iqtisodiy normativlarni buzish, shuningdek agar dividendlar to‘lash natijasida iqtisodiy normativlar buzilib, buning oqibatida omonatchilar va kreditorlar manfaatlariga jiddiy xavf tug‘ilsa;

Bankka nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning dividendlar to‘lashni to‘xtatish to‘g‘risida talabi mavjud bo‘lsa.

10. Bank dividendlarning miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e’lon qiladi.

Dividendlarga soliq solish soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi va bunda soliq solish bo‘yicha imtiyozlar belgilanishi mumkin.

4-bob. Dividendlarni to‘lash muddati va tartibi

11. Dividendlarni to‘lash muddati va tartibi Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to‘lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e’tiboran oltmish kundan kech bo‘lmastligi lozim.



12. Dividendlar Bank tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar Bankning buning uchun maxsus mo'ljallangan fondlari hisobidan ham to'lanishi mumkin.

13. Dividend Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Bankning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

Bankning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlarni qimmatli qog'ozlar bilan to'lashga yo'l qo'yilmaydi.

Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

14. Bank tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

15. Dividendlarni to'lash Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi yoki investitsiya vositachilari orqali aksiyadorning mavjud bank hisobvarag'iga qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Bunda Bank tomonidan aksiyadordan dividendlarni to'lash to'g'risidagi ariza talab qilinmaydi.

16. Bank O'zbekiston Respublikasi norezident aksiyadorining yozma talabiga ko'ra unga hisoblangan dividendlarni erkin ayirboshlanadigan valyutaga ayirboshlab, mablag'larni norezident aksiyador taqdim etgan bank hisobvarag'iga o'tkazib beradi.

17. Dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Bank aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.

5-bob. E'lon qilingan dividendlar bo'yicha javobgarlik



18. Dividendlar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda Bankning aybi bilan to'lanmagan (olinmagan) taqdirda to'lanmagan (olinmagan) dividendlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkalaridan kelib chiqqan holda penya hisoblanadi.

To'lanmagan (olinmagan) dividendlar bo'yicha hisoblanadigan penyalar miqdori to'lanmagan (olinmagan) dividendlar miqdorining 50 (ellik) foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

19. Aksiyador Bank tomonidan hisoblangan dividendlar va penyalar to'lanishini sud tartibida talab qilishga haqli.

6-bob. Axborotlarni oshkor qilish tartibi

20. Bank to'lanadigan dividendlar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlarni qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining va



Bankning rasmiy veb-saytlarida qonunchilikda belgilangan muddatlarda e'lon qiladi.

21. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi dividendlarni to'lash to'g'risidagi qarori qabul qilinganligi va boshqa muhim axborot haqidagi xabar ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 15 (o'n besh) kun ichida jo'natilganligi faktini va qabul qilinganligi to'g'risidagi xabarnomani qayd qilgan holda, aksiyadorlar e'tiboriga mobil telefonga qisqa xabarlar (SMS-xabarlar) va (yoki) elektron pochta (aksiyadorlar reyestrda mobil telefon raqami va elektron pochta manzili mavjud bo'lganda) orqali yetkaziladi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

22. Mazkur Siyosat talablariga rioya qilinmagan mas'ullar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.


23. Mazkur Siyosatga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

24. Mazkur Siyosat bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

25. Ushbu Siyosatning alohida bandlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.


07.10.2025



YURIDIK XULOSA
(ichki qoidani huquqiy ekspertizadan o'tkazish to'g'risida)

Toshkent shahar

“ 07 ” _____ 2025 yil

Ekspertiza o'tkazuvchi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning (keyingi o'rinlarda “Bank” deb yuritiladi) Yuridik boshqarmasi.

Ekspertizadan o'tkazilgan me'yoriy hujjat nomi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining dividend siyosati (keyingi o'rinlarda “ichki qoida” deb yuritiladi).

Ekspertiza o'tkazishda foydalanilgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunlari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida nizomi va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari, hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar (keyingi o'rinlarda “qonunchilik va me'yoriy hujjatlar”).

Mazkur ichki qoida qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Bankning dividendlarni shakllantirish, taqsimlash va to'lash tartibotini belgilab beradi.

Ushbu ichki qoida ishlab chiqishda qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilingan.

Mazkur ichki qoida, agar unda boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, Bankning aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

Ushbu ichki qoidaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bankning aksiyadorlarning umumiy yig'ilishning qarori asosida kiritiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqilishi belgilangan ichki qoidalar, shuningdek ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tijorat banklari tomonidan tasdiqlangandan so'ng 15 (o'n besh) kun ichida Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

“Open bank” aksiyadorlik jamiyatning
Yuridik boshqarmasi boshlig'i
S.I. Salimov

